

Namangan viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-noyabr oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-noyabr oylarida, Namangan viloyatida jami 13823,2 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 111,4 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamika



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Namangan viloyati	13823,2	111,4
Mingbuloq tumani	510,9	135,8
Kosonsoy tumani	616,2	111,3
Namangan tumani	536,5	108,8
Norin tumani	367,5	103,6
Pop tumani	620,8	116,6
To'raqo'rg'on tumani	480,1	120,3
Uychi tumani	1186,1	104,6
Uchqo'rg'on tumani	605,1	118,8
Chortoq tumani	643,5	109,5
Chust tumani	521,1	110,5
Yangiqo'rg'on tumani	455,1	111,1
Namangan shahar	2875,3	115,7
shundan		
Davlatobod tumani	1161,5	115,0
Yangi Namangan tumani	668,5	125,1
Taqsimlanmagan	4405,0	112,0

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-noyabr oylarida Namangan viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 80,8 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 112,3 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 7,8 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 55,7 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 11,4 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 295,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd. so'm	480,4	504,8	90,6
o'sish sur'ati, %	187,7	99,4	165,7
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd. so'm	3709,5	567,1	1489,2
o'sish sur'ati, %	119,0	40,7	314,4
Norasmiy sektor hajmi, mlrd. so'm	6981,6	-	-
o'sish sur'ati, %	105,6	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-noyabr oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1075,8 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 131,4 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 1,1 % ga ko'payib, 7,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 41,7 % i to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,0 % ga ko'payib. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 115,7 % ni tashkil etgan holda 5765,8 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 50,5 % mos davriga nisbatan 2,1 % ga kamaygan yoki 6981,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 105,6 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Namangan viloyati	1075,8	5765,8	6981,6	131,4	115,7	105,6
Mingbuloq tumani	7,3	325,4	178,2	87,7	163,5	105,0
Kosonsoy tumani	4,9	254,5	356,8	20,1	148,9	99,4
Namangan tumani	30,1	288,9	217,4	65,7	132,9	94,2
Norin tumani	5,4	167,8	194,3	61,0	112,9	98,5
Pop tumani	251,0	202,8	166,9	88,5	213,8	108,2
To'raqo'rg'on tumani	14,8	240,6	224,7	61,3	144,2	107,7
Uychi tumani	248,8	686,1	251,2	2657,9	76,1	112,7
Uchqo'rg'on tumani	71,3	293,8	240,0	148,7	132,0	100,2
Chortoq tumani	6,7	375,4	261,5	50,7	121,6	98,3
Chust tumani	15,5	241,5	264,1	144,6	119,0	102,1
Yangiqo'rg'on tumani	13,7	209,2	232,2	124,9	126,4	99,3
Namangan shahar shundan	243,3	2085,0	547,1	111,5	113,4	128,0
Davlatobod tumani	66,7	949,8	145,0	-	108,7	105,9
Yangi Namangan tumani	134,3	347,9	186,2	283,4	108,0	112,7
Taqsimlanmagan	163,0	394,8	3847,2	144,6	113,4	105,7

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Uychi tumani (2024-yilning mos davriga nisbatan 26,5m), va Uchqo'rg'on tumanida (148,7 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Pop tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 213,8 %) va Mingbuloq tumanida (163,5 %) kuzatildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Namangan shahar (2024-yilning mos davriga nisbatan 128,0%), Uychi tumanida (112,7 %) va Pop tumanida (108,2 %) qayd etildi.

V. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni
(69) 227-84-85

Manzil:
160133, Namangan sh,
N.Namangoniy ko'chasi, 14-uy.
